

O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Boysunov Jamshid Baxriddin ug'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasи o'qituvchisi.

j.boysunov@tsue.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211474>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, moliyaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, xususiy sektor, moliyaviy resurslar, investorlar, tijorat banklari.

ENSURING THE FINANCIAL SECURITY OF THE SECURITIES MARKET IN UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the financial security of the stock market in Uzbekistan, the economic stability and development of our country.

Key words: securities, financial security, economic stability, private sector, financial resources, investors, commercial banks.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается финансовая безопасность фондового рынка Узбекистана, экономическая стабильность и развитие нашей страны.

Ключевые слова: ценные бумаги, финансовая безопасность, экономическая стабильность, частный сектор, финансовые ресурсы, инвесторы, коммерческие банки.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qimmatli qog'ozlar bozori, davlat va xususiy sektorlarda investitsiyalarni jalg qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda asosiy rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosatlar ham muhimdir. Masalan, moliyaviy nazorat va tartibga solish, bozorning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday siyosatlar, investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy bozorning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Prezidentimiz farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, bu sohadagi moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Maqsad	2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari
II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH	
<p>Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish</p>	<p>Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish.</p> <p>Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish.</p> <p>Umumiyligi 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish.</p> <p>Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlardan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish.</p> <p>Pay va vechur jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish.</p> <p>40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”sigaga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish.</p> <p>Chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish.</p>

	Barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo'l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish.
--	--

Farmon ijrosini ta'minlash yuzasidan 2024-yil 26-sentabr kuni “O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ 4,44% (3 326 031 dona) aksiyalari ommaviy joylashtirilishi boshlanib va shu yil 8-noyabr kuniga qadar davom etganligini ko'rishimiz mumkin.



Joylashtirish hajmi

4,44%

Ustav kapitalidan



Aksiya turi
Oddiy



Prognoz qilingan o'sish
+35%

1 aksiya uchun taklif qilinadigan narx oralig'i 12 900 so'm – 18 000 so'm.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek institutsional investorlar va xorijiy investorlar o'tasida joylashtirish.

- Har bir ariza uchun minimal aksiyalar soni: 1 ta aksiya.

Qoniqish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining arizalariga birinchi navbatda qoniqtiriladi.
- Boshqa investorlarning arizalariga ikkinchi ustuvorlik beriladi.
- Muhim: obuna mo'ljalangan hajmdan ko'p bo'lganda, bitta investorda aksiyalarning yuqori konsentratsiyasiga va/yoki amaldagi qonunchilik talablari va/yoki amaldagi muvofiqlik tartib-qoidalalarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan arizalar qisman qanoatlanishishi yoki rad etilishi mumkin. Anderrayter va sotuvchi aksiyador investorlarning arizalarini rad etish yoki qisman qondirish huquqini saqlab qoladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator omillarni hisobga olish zarur.

Avvalo, davlatning moliyaviy siyosati va tartibga solish mexanizmlari, bozorning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday integratsiya, investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Islom moliyasi, xususan, suukuning O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida joriy etilishi, yangi moliyaviy vositalarni taqdim etishi bilan birga, investor uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shariat tamoyillariga mos keladigan islomiy qimmatli qog'ozlar an'anaviy moliyaviy vositalarga muqobil bo'lib, turli jahon bozorlarida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bunda o'ziga xos iqtisodiy, madaniy va tartibga solish muhitini hisobga olgan holda O'zbekistonda buni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin, shuningdek, aholi va biznes vakillarining bo'sh mablag'larini samarali ravishda ko'paytirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bozorining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston iqtisodiyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustakhkamlash, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari, o'z navbatida, investorlar uchun qimmatli qog'ozlarning investitsiyasi jozibadorligini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Buning natijasida moliya bozoridagi raqobat bardoshlik mustaxkamlanadi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular bozor sharoitlariga moslashish va zamonaviy risklarni boshqarish usullarini qo'llash imkoniyatiga ega.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish ham muhimdir. Xalqaro tajriba, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa qimmatli qog'ozlar bozorining barqarorligini oshiradi, shuningdek, moliyaviy bozorlarning global barqarorligini oshirishga yordam beradi. Xorijdan, xususan, AQSH, Germaniya, Yaponiya va Xitoy qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyati va qonunchiligi O'zbekiston uchun muhim o'rganish manbasi bo'lishi mumkin. Bunday tajribalar, O'zbekiston moliya bozorida qimmatli qog'ozlar bozorining barqarorligini ta'minlashda yordam berishi mumkin.

O'zbekiston moliya bozorida davlat qimmatli qog'ozlari daromadlilik egri chizig'ini aniqlash, fiskal va monetar siyosatni muuvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat qarzining optimal darajasini belgilash, iqtisodiyotning tariqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon, qimmatli qog'ozlar bozorining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Natijada, O'shbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, davlat siyosati, xalqaro tajribalar, tijorat banklarining faoliyati va islom moliyasi kabi bir qator omillarni hisobga olishni talab qiladi. Bu jarayon, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va rivojlanishini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. lex.uz
2. xalqchilipo.uz